
Informatika fani o'qituvchisi xalqaro ilmiy-amaliy ko'rik-tanlovda g'olib bo'ldi

«Ilm-fan fidokori» Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy ko'rik-tanlovida Farg'ona shahridagi 40-ixtisoslashtirilgan o'rta ta'lim maktabining informatika fani o'qituvchisi Zulfiyaxon Qodirova taqdirlandi. Tanlov g'oliblariga «Ilm-fan fidokori» esdalik nishoni hamda esdalik nishon belgisi, guvohnoma, sertifikat, diplom, tashakkurnoma hamda tanlov to'plami taqdim etildi. Suratlarda: ko'rik-tanlov g'oliblari va Z.Qodirova(chapdan ikkinchida) Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-11-09 18:36:32